

Alisher Navoiy shaxsiyati hamda ijodi

Normatova Maftuna Hasan qizi

Jizzax viloyati G`allaorol tumani 66-maktab ona tili va adabiyot o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi, yangilangan maktab darsliklarida berilgan Navoiy yaratgan qit`alar va fardlardan na`munalar kabi ma`lumotlar beriilgan.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi, darslik, qit`a, fardlardan na`munalar.

O`zbek adabiyotining bugunga kelib takomillashuviga hamda asrlar osha ulug`lanib yosh kelajak ko`ngliga “g`azallar” tushunchasini singdira olgan ko`plab beqiyos na`munalarini o`qib, ko`nglimiz ham, umrimiz ham gullab yashnashiga o`zining katta hissasini qo`sghan buyuk mutafakkir, zullisonayn shoir Alisher Navoiy bobomizni bugun yod etar ekanmiz ko`nglimizda olam-olam faxr tuyg`usi jo`sh urmoqda.

Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga hamma zamonalarda qiziqish o`zgacha aks ettirilgan. Ulug` mutaffakirning shaxsi, fe'l-atvori haqida yaqqolroq tasavvur hosil qilish uchun, avvalo hazratning asarlarini va bu ulug` zotga zamondosh bo`lgan adiblarning xotiralarini sinchiklab o`qish zarur.

“Yoshlik paytidayoq sohibi fan bo`ldi...” Davlatshoh Samarqandiy “Tazki- rat ush-shuar” dan, “Siniq nafs va ulug` tavozu egasi...” Mirxond “Ravzat us-safo” dan, “Himmat va saxovatda benazir zot...” Xondamir “Makorim ul-axloq” dan kabi bir-birlarini takrorlamas fikrlar bildirilgan edi. Navoiy haqida o`z zamon- doshlari tomonidan aytilgan ushbu ta`riflar va uning ijod yo`li haqidagi fikrlar bolaligimizdan ongimizga kirib borgani bejiz emas. Chunki, ushbu buyuk inson ulg`ayishimiz yo`lida komillik sari olg`a yurishimizda misoli yo`lchi yulduz bo`lib porlab turuvchi ulug` zotdir. Navoiyning beba ho mero si nafaqat turkiy xalqlar, balki butun bashariyat uchun bamisoli obihayot manbayi hisoblanadi. Shoир yaratgan birgina Farhod obrazi orqali butun insoniyat uchun takrorlanmas umuminsoniy tuyg`ular, qolaversa, ko millik timsolini yuksak darajada ta`rif-u tasniflab bergen yuksak didli ijodkordir.

Alisher Navoiy she`riyatga g`oyat qiziqadigan, zehni o`tkir, adabiyotni qunt bilan o`rganadigan xalqini, yurtini, Allohnini suyadigan jonidan ham sevadigan buyuk

siymo bo`lgan. Alisher yaxshi farzand, yaxshi aka, yaxshi jiyan, yaxshi shogird, yaxshi o`quvchi va yaxshi do`sht ham edi. Husayn Boyqaro bilan do`stligi dunyo ko`z o`ngida oltinga teng davrlar deya, ta`riflasak adashmaymiz. Husayn Bayqaro 1472-yilning fevral oyida uni saroyning bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga “Amiri kabir” unvonini beradi. Alisher Navoiy barcha lavozimlarida avvalo butun kuchini mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o`rnatishgaga qaratadi. Shahar-larda savdosotiqni, hunarmandchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. Do`sti va xalqi uchun jon-jahti bilan harakat qiladi.

Navoiy ko`nglida ulkan insonparvarlik tuyg`usi uni bir umr tark etmadi. Navoiy o`rta asrdagi uyg`onish davrining boshqa ulug` zotlari kabi butun hayotida haqiqiy inson qanday bo`lishi lozimligini ko`rsatdi.

Navoiy hayot yo`lida xalqni ham she`riyatni ham birga-birga olib ketishga harakat qilar edi. Buning isboti u yaratgan asarlar jamlanmasiga e`tabor qaratsak. 1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o`zining o`zbek tilida yozgan she`rlaridan iborat ilk devoni “Badoe ul- bidoya” (“Badiylik ibtidosi”) ni tuzdi. Bunday mukammal devonini tuzish Navoiygacha kamdan- kam shoirga nasib bo`lgan edi. 1480- yillarning oxirida “Navodir un-nihoya” (“Behad nodirliklar”) devonini tuzi. Bundan so`ng ko`ngliga yoshligidan tuyib qo`ylgan maqsadini 1483- 1485- yillarda amaliyotga tadbiq etdi. Bu maqsad o`zbek tilida “Xamsa” asarini yaratish edi. Asar o`zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Bundan so`ng ham ijodkor juda ko`p chinak- kam adabiyot durdonalarini ham yaratdi. Mana shunday asarlardan ko`plarini boshlang`ich sinfdan to yuqori sinflarda ham uchratamiz.

Navoiy o`ta ijodkor inson bo`lganini u yaratgan asarlardan bilib olishimiz qiyin emas. Hozirgi zamonaviylashgan asrimizda ham Navoiy ijodi yuksaklikka tomon olib chiqilmoqda. Bu borada barcha ijodkorlar tomonidan Navoiy ijodi va shaxsiyatiga qiziqib maqolalar yaratgan. Mana shunday maqolalardan birida, “Shoir tabiatan nihoyatda sinchikov inson bo`lgan. Atrofdagi voqeа-hodisalarini, odamlar va ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni doimo kuzatgan, ulardan ma`lum xulosalar chiqargan. Hatto kichik hayotiy-maishiy tafsillar ham e`tiboridan chetda qolmagan”... mana shunday hayotiy voqelardan ilhomlanib yozilgan hozirgi zamonda ham qo`llaniladigan qit`a va fardlar yaratilgan.

Qit`a (arabcha “bo`lak, qism, parcha” so`zidan) mumtoz adabiyotda qo`llangan janrlardan biri bo`lib, unda muallifning turli mazmundagi fikr-muloha-zalari,

qarashlari ifodalanadi. Qit'a ikki bayt (to'rt qator) va undan ortiq bo'lishi mumkin. Unda ikkinchi misra (qator) o'zaro qofiyalanadi[4,125].

7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan quyidagi qit'alar mazmuni va tahlili haqida fikr yuritamiz;

Kamol et **kasbkim**, olam uyidan-

Sanga farz o'lmag`ay g`**amnok** chiqmoq.

Jahondin **notamom** o'tmak **biaynih**,

Erur hamomdin nopol chiqmoq.

Lug'at: Kamol-yetuklik, kasb etmoq-o'rghanmoq, g`amnok-g`amgin, notamom-nokomil, biaynih- xuddi, aynan. Ushbu qit'ada maktab o'quvchilari ongiga va bilim darajasiga ta'siri juda katta bo'lgan ma'no mazmun mavjud ya'ni, olam uyidan yetuklikni o'rgan, sen olam uyidan g`amgin chiqishni farz deb bilma. Jahondan nokomil ya'ni dunyodagi barcha fazilatlar-u, yetuklilarsiz o'tish xuddi, hammomga yuvinishga kirib yuvinmasdan kir holatda chiqish bilan barobardir.

Ilmdan kasb qilki, sud ermas,

Charx mushkillarini hal qilmoq.

Lekin ul ilm dog'i naf etmas,

Bilibon bo'lmas amal qilmoq.

Lug'at: **sud**-foyda, **charx**-osmon,zamon. Ilmni kasb qil bu sen uchun foyda, charx mushkullarini ham hal qiladi. Lekin bir narsani bilib qo'y, o'sha olgan yetukliging, biliming nafi bo'lmaydi, bilgan, olgan ilmingga amal qilmasang.

Navoiyning barcha turdag'i ijod na'munalarini tahliliy mazmunini bilmoq uchun asosan lug'atlardan foydalanish kerak. Bu lug'atlarni o'rganish o'quvchilarning so'z boyligini balki, dunyoqarashini kengaytiradi.

Fard- (arabcha "yakka, yolg'iz" so'zidan) mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri bo'lib, unda muallifning hayotiy kuzatishlariga asoslangan xulosalari, g`oyalari ilgari suriladi. Fard bir bayt (ikki qator) dan tashkil topadi[4,127].

7-sinf darsligidan ayrim fardlarning mazmuni va tahlili bilan, tanishib chiqamiz.

Kishi aybin yuziga qilma izhor,

Taammul ayla o`z aybingg`a zinhor.

Lug`at: **taammul aylamoq-** fikr yuritmoq, yaxshilab o`ylamoq, **izhor-** aytmoq, **zinhor-** tojikchasiga hech qachon, kechirim, hech shubhasiz. O`zbekchada esa, aslo, mutlaqo[5,306].

Kishining aybini yuziga aytma, yaxshilab o`ylab ko`r fikr yurit o`z aybingni, yoki, kishilarning aybini yuzlariga aytishingdan oldin o`zingning aybingni hech shubhasiz yaxshilab o`ylab ko`r.

Navoiy yaratgan barcha turdag'i nodirliklarda insoniy kechinmalar jamlanmasi mavjuddek, ya`ni g`azallarida,(tuyuq, ruboiy, fard va b) larda nozik tuyg`ular, o`y-fikrlar, orzu-umidlar, ruhiy kechinmalar, qolaversa o`nlab she`riy san`atlar (tazod, talmeh, tamsil, istiora, tashbeh)dan ham mohirona foydalangan buyuk ijodkordir. Oddiy hayotiy kundalik turmushdagi barcha unsurlarni birgina so`z sehri ila yetuklikka komillikka yetaklovchi avlodalar ko`nglidan o`chmaydigan ajdod hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. <https://kitobxon.com>. Alisher Navoiy asarlari va kitoblari.
2. <https://n.ziyouz.com>. Ziyo istagan qalblar uchun!- Kutubxona- Alisher Navoiy asarlari.
3. O`zbek tili va adabiyoti. Toshkent. Fan nashriyoti.6/2008.
4. Adabiyot 7-sinf darslik.Yangi nashr.Toshkent-2022.
5. O`zbek tilining etimologik lug`ati.(III- jild).